

**“UMS” MCHJ  
KUZATUV KENGASHINING  
“10” ooktyabr 2023 y. 10-son  
BAYONNOMASI BILAN  
TASDIQLANGAN**

**“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS”  
MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH**

**SIYOSATI**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Siyosat “Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyatida (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ochiqlikni ta’minalashga, ya’ni Jamiyat xodimlarida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish uchun yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek Jamiyat xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakatlarlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan.
2. Jamiyat yuksak odob-ahloq standartlari hamda insofli biznes yuritishga muvofiq bo‘lgan obro‘sini qadrlaydi. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik hamda O‘zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi qonunchiligiga rioya qilish asosiy korporativ tamoyil hisoblanadi.
3. Ushbu Siyosatda Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan amal qilinishi shart bo‘lgan xatti-harakat standartlari bayon etilgan. Ushbu Siyosat, shuningdek Jamiyatning kontragentlari va ishbilarmon hamkorlariga ham ta’sir qiladi. Jamiyat sanab o‘tilgan shaxslar ushbu Siyosatga rioya qilishini yoki muqobil siyosatlarni qo‘llashlarini kutib qoladi.
4. Ushbu Siyosat “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoniga muvofiq hamda ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari. Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talab va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.
5. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:
  - Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki hujjatlari talablarini tushunish va ularga rioya etish;
  - Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;
  - Jamiyatning barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
  - xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
  - korrupsiyaviy xatti-harakatlarni o‘z vaqtida aniqlash, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olish, ularning oqibatlari, sabablari va ularga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilganligi uchun javobgarlik muqarrarligi tamoyilini ta’minalash;
  - Jamiyatda korrupsiyaga barham berilishiga erishish.

6. Ushbu Siyosat egallab turgan lavozimi va bajarayotgan vazifalaridan qat’iy nazar, Jamiyatning barcha xodimlari, jumladan Jamiyatning hududiy xizmat ko‘rsatish markazlari xodimlari uchun birdek amal qiladi.

## II. ATAMALAR VA TAVSIFLAR

7. Ushbu Siyosat maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalilanadi:**davlat tashkilotlari** – ushbu Siyosat talqinida davlat organlari (jumladan, ammo cheklanmagan holda), qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organi, davlat korxonasi va

tashkiloti yoki davlat boshqaruvida bo‘lgan korxona va tashkilot, shuningdek davlat ulushi mayjud bo‘lgan korxonalar va ularning bo‘linmalari, bevosita yoki bilvosita davlat nazorati ostida bo‘lgan yuridik shaxslar;

**davlat xizmatchisi** – davlat tashkilotining har qanday mansabdar shaxsi yoki xizmatchisi;

**kontragent** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlaridan tashqari) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslarning Jamiyat nomidan yoki Jamiyat manfaatidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlari xavfi;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilikka nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan professional va odob-ahloqli faoliyat yuritilishining yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**xalqaro tashkilot** – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan, tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat’iy nazar, har qanday xalqaro tashkilot;

**Jamiyat xodimi/ishchisi** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxs;

**yaqin qarindoshlar** – ota-onas, tug‘ishgan yoki tutingan aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzandlar, jumladan asrab olingan farzandlar, buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er(xotin)ning ota-onasi, tug‘ishgan yoki tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

### **III. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

8. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy tamoyillar bo‘yicha tashkil etilgan va amal qiladi:

**1) qonuniylik** – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining talablari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba va Jamiyatning ichki hujjalari qat’iy muvofiq holda amalga oshiriladi;

**2) korrupsiyaga nisbatan murosasizlik** – Jamiyat o‘z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakli va namoyon bo‘lishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladi. Jamiyat xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat’ian taqiqlanadi;

**3) ochiqlik va shaffoflik** – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida Jamiyat xodimlari va kontragentlarini, shuningdek jamoatchilikni xabardor qilish;

**4) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning preventiv xususiyati, tizimliliği va yaxlitligi** – Jamiyat korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish va korrupsiyaviy xavflar amalga oshishiga xizmat qiluvchi sabab va shartlarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-

tadbirlarni amalga oshirishga ustuvorlik qaratadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq bo‘lishi va Jamiyat faoliyatining barcha funksiya va yo‘nalishlariga integratsiyalangan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

**5) korrupsiyaga oid huquqbazarliklar uchun javobgarlik muqarrarligi** – ushbu siyosat talablariga rioya qilmagan va/yoki korrupsiyaga oid huquqbazarlikni sodir etgan Jamiyat xodimlari, ular egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

**6) texnika taraqqiyoti yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish** – Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishda ilm-fanning so‘nggi yutuqlari, jumladan kompleks axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

**7) to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish** – Jamiyatning har bir xodimi korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, belgilangan chora-tadbirlarni ko‘rish uchun Jamiyat Bosh direktori yoki uning o‘rinbosarlariga hech qanday to‘siksiz va javob harakatlardan qo‘rmasdan murojaat qilishi mumkin;

**8) tegishli ehtiyyotkorlik** – Jamiyat ishbilarmonlik/mehnat munosabatlarini boshlash yoki davom ettirish haqida qaror qabul qilishdan avval kontragentlar va ishga joylashish uchun nomzodlarni ularning ishonchliligi, korrupsiyani qabul qilmasligi va manfaatlar to‘qnashushi mavjud emasligi yuzasidan tekshiradi;

**9) komplaens xizmatining mustaqilligi** - korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Kompaniya Kuzatuv kengashiga tez va to‘siksiz kirish va belgilangan muddatlarda hisobot taqdim etishning mavjudligi;

**10) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy takomillashtirish** –korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijalari bo‘yicha Jamiyat bosh direktori korrupsiyaga qarshi tizim samaradorligini munatazam ravishda oshirish majburiyatini oladi.

#### **IV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING ELEMENTLARI**

9. Korrupsiyaga nisbatan “murosasizlik” tamoyiliga amal qilgan holda, Jamiyatning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita ravishda, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy xatti-harakatlarda, ya’ni pora beruvchi manfaatida xodimning harakati yoki harakatsizligi uchun pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy xususiyatga ega xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, da’vo qilish, taklif qilish, va’da qilish va berishda, belgilangan qoidalarni chetlab o‘tgan holda rasmiyatchiliklarni soddallashtirish uchun to‘lovlarni qabul qilishda, shaxs tomonidan pora olish maqsadida va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat holatidan noqonuniy ravishda foydalanishda ishtirok etish qat’ian taqiplanadi.

10. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

a) **korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi**, ya’ni Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

mazkur Siyosat;

“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyatni xodimlarining ishbilarmonlik odob-ahloq qoidalari;

“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish nizomida aks ettirilgan tamoyil va talablar tashkil etadi.

b) “**Yuqoridan o‘rnak**” – yuqori rahbariyatning namunasi, ya’gi Jamiyat Bosh direktori, uning o‘rnbosarlari, shuningdek Jamiyat tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari:

xodimlari, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan munosabatda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo‘lishi kerak;

Jamiyat faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo‘nalishlari)ga korruptsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan yetakchilikni namoyon etadilar;

o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida shaxsan odobli hulq-atvor va korruptsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi hamda qabul qilingan ichki hujjatlarning me’yorlariga rioya etilishini namoyon etish orqali Jamiyat xodimlarida korruptsianing barcha shakl va ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradilar;

v) **korruptsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash** - Jamiyat o‘z faoliyatiga xos korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, boshqa tashkilotlar va abonentlar bilan o‘zaro munosabatlar, shuningdek Jamiyatda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Jamiyat Bosh direktori tomonidan ko‘rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Jamiyatning yo‘l xaritalarida aks ettiriladi;

g) **korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul tarkibiy bo‘linmalar:**

Jamiyatda faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirishdan iborat bo‘lgan tarkibiy bo‘linma – Komplayens bo‘limi tashkil etilgan.

Jamiyatning Komplayens bo‘limi o‘z faoliyatini Komplayens bo‘limi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi hamda bevosita Jamiyat Bosh direktoriga bo‘ysinadi.

Jamiyat Bosh direktori Komplayens bo‘limini Jamiyatning korruptsiyaga qarshi vazifalarini amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik, zarur resurslar va vakolatlar bilan ta’minlaydi.

Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash bo‘yicha departamenti Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normatalarida ko‘zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma’lumotlarning tizimli va o‘z vaqtida yig‘ilishi, tahlil qilinishi va dolzarblashtirilishi uchun javob beradi.

Jamiyatda Odob-ahloq va korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya tashkil etiladi. Komissiya xodimlar tomonidan belgilangan xulq-atvor qoidalari, ushbu Siyosat talablariga rioya etilishi masalalarini ko‘rib chiqadi, shuningdek Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq nizolarni tartibga soladi.

**e) Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati to‘g‘risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta‘minlash**

Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamoatchilik xabardorligini oshirish maqsadida ushbu Siyosat va amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga doir asosiy axborotni o‘zining rasmiy saytida joylashtiradi.

Jamiyat xodimlar va boshqa manfaatdor shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi me’yorlari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablarni quyidagilar orqali tushuntirish va yetkazishga barcha sa’yarakatlarini qaratadi:

Jamiyat rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Jamiyatda xodimlar tomonidan korruiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o‘qitilishi va sinovdan o‘tkazilishini ta‘minlash;

yangi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha majburiy kurslar/treninglarni tashkil etish, ularni ushbu Siyosat va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan tanishtirish;

Jamiyatdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o‘qitishining qo‘sishma dasturlari tashkil etiladi;

mavzuga doir audio va vidoroliklar hamda Jamiyat xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi aksiyalar tashkil qilish;

mazkur Siyosat qoidalarini qo‘llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog‘liq savollar yuzaga kelganida Komplayens bo‘limi tomonidan Jamiyat xodimlariga maslahatlar berish;

Jamiyat korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol ilgari surish;

Jamiyat xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish: Jamiyat korrupsiyaga qarshi qoidalarni amaldagi mehnat shartnomalariga qo‘sishma kelishuvlarni tuzish orqali, shuningdek Jamiyatning yangi xodimlari bilan shartnomalarga kiritadi;

pudratchilar va hamkorlar bilan shartnomalarning shartlariga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

**j) monitoring, nazorat va hisobdorlik** – Komplayens bo‘limi Jamiyatda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligi baholanishini amalga oshiradi.

Monitoring va nazorat Jamiyatda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar samaradorligi monitoring va nazorat qilinishini tartib soluvchi ichki hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim:

Jamiyat faoliyatining funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillardagi o‘zgarishlari tahlil;

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi monitoringi;

Xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

OAVda Jamiat yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Jamiat kontragentlari to'g'risida xuddi shunday ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

Jamiat yo'l xaritasining to'liqligi va uni amalga oshirish samaradorligi monitoringi;

Jamiat xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

Jamiat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish;

Jamiatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ichki auditini o'tkazish, jumladan Jamiatda belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarga aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi Jamiatning tegishli ichki hujjatida belgilanadi.

**z) qoidabuzarliklarga munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish.**

Ushbu Siyosatga mos kelish va Jamiatning korruptsiyaga qarshi tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar belgilangan talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Bundan tashqari, bevosita rahbarlar ularga tobe xodimlar tomonidan korruptsiyaviy qonunbuzarlikdar sodir etilganligi uchun shaxsan javob beradilar.

Jamiatning belgilangan korruptsiyaga qarshi tamoyil va talablarini buzgan xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartib va asoslarda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Xodimlar har qanday shaxslarning korruptsiyaviy qoidabuzarlikni sodir etishga undash maqsadida ularga murojaati bilan bog'liq barcha holatlar, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan har qanday korruptsiyaviy qoidabuzarlik holatlar haqida bevosita yoki yuqori turuvchi rahbarini va/yoki Komplayens bo'limini xabardor qilishi kerak. Korruptsiyaga nisbatan murosasizlik tamoyilini hisobga olgan holda Jamiatda xodimlar tomonidan korruptsiyaviy xatti-xarakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Jamiatda ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Ushbu Siyosat, korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Jamiatning boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan Jamiat xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiatning ichki hujjatlari doirasida va ularda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Korruptsiyaviy xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda Jamiat ularning yuzaga kelish sabablarini va imkoniyatlarini tahlil qiladi va doimiy ravishda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi. Jamiat korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash uchun huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

## **V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA QARATILGAN ASOSIY TALABLAR**

### **Davlat xizmatchilari va davlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik.**

11. Ushbu Siyosat ham davlat, ham xususiy sohadagi barcha ishbilarmonlik munosabatlariga amal qiladi. Shunga qaramay, davlat tashkilotlari va davlat xizmatchilari bilan o‘zaro munosabatlar alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki ular ko‘p sonli me’yorlar bilan tartibga solinadi hamda poraxo‘rlik va korrupsiya bilan bog‘liq yuqori xavf-xatar bilan ifodalanadi.

Jamiyat va uning xodimlariga ishbilarmonlik imkoniyatlarini olish, saqlab qolish yoki nazorat qilish uchun rasmiy qarorlarni qabul qilishga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish maqsadida davlat xizmatchilariga qimmatli sovg‘alar taqdim etish qat’iyan taqiqilanadi.

### **Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish**

12. Jamiyat xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeidan va Jamiyat tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

13. Manfaatlar to‘qnashuvi Jamiyat xodimlarida o‘z xizmat majburiyatlarini muvofiq ravishda va xolisona bajarishga, jumladan xolisona qaror qabul qilishga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan, shuningdek adliya organlarining huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki va/yoki obro‘siga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatga ega bo‘lgan vaziyatda yuzaga keladi.

14. Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni oshkor qilish jarayoni Jamiyatning manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risida ichki idoraviy hujjatida belgilab qo‘yiladi.

15. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Jamiyat xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim.

### **Sovg‘alar va vakillik xarajatlari**

16. Jamiyatning barcha qarorlari xolis bo‘lishi va noqonuniy ta’sirga moyil bo‘lmasligi kerak. Sovg‘alar berish, vakillik xarajatlari to‘lash va ishbilarmonlik mehmondo‘stligining boshqa shakllari noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun g‘arazli maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin va bu Jamiyatda belgilangan talablarga rioya etilmasligi xavf-xatarlarini yuzaga keltirishi mumkin. SHu sababli, har qanday sovg‘alar va vakillik xarajatlari quyidagi mezonlar yig‘indisiga muvofiq bo‘lishi kerak:

(1) Jamiyat faoliyatining qonuniy maqsadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi, masalan biznes-loyihalar taqdimoti yoki tugashi, mahsulot va xizmatlarni ilgari surish, shartnomalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish yoki davlat va diniy bayramlar kabi umumqabul qilingan bayramlar, esdalik sanalari, yubileyalar va h.k.;

(2) oqilona asoslangan, mutanosib bo‘lishi va hashamat buyumlari bo‘lmasligi;

(3) oluvchining unga yuklangan xizmat va lavozim vakolatlari (majburiyatlar) doirasida xolisona va adolatli qarorlarni qabul qilish qobiliyatini obro‘sizlantirmasligi, jumladan, ammo cheklanmagan holda, o‘zga holatda taqdim etilmaydigan axborot, afzal munosabat yoki imkoniyatlarni taqdim etmaslik;

(4) bitim, kelishuv, litsenziya, ruxsatnoma va boshqalar yuzasidan xizmat ko'rsatganligi, harakati, harakatsizligi, beparvo munosabati, yoqlaganligi, huquqlarni taqdim etganligi, ma'lum qaror qabul qilganligi uchun yashirin mukofot yoki oluvchiga boshqa noqonuniy yoki ahloqsiz maqsadda ta'sir o'tkazishga urinish shakliga ega bo'lmashigi;

(5) bunday sovg'alar yoki vakillik xarajatlari doir axborot oshkor bo'lgan taqdirda, Jamiyatning obro'siga xavf-xatar yuzaga keltirmasligi kerak;

(6) qonunchilik, shuningdek oluvchiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan boshqa tartib-taomillar va siyosatlar bilan taqiqlanmagan bo'lishi;

(7) oluvchi zimmasiga biron-bir ma'naviy majburiyatni yuklamasligi;

(8) ushbu Siyosatning tamoyil va talablariga, Ishbilarmonlik odob-ahloqi qoidalari, Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlariga zid bo'lmashigi;

(9) Jamiyatda belgilangan zarur tartib-taomillardan o'tishi, yuqori turuvchi rahbar tomonidan ma'qullanishi va hujjatlashtirilgan bo'lishi.

17. Quyidagi sovg'alar va vakillik xarajatlari har qanday vaziyatlar nomaqbul hisoblanadi:

pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari (masalan, sovg'abop sertifikatlar yoki sovg'abop kartalar, cheklar, qarz, tilla, qimmatli qog'ozlar va h.k.);

sovg'alar yoki vakillik tadbirdi, agar ular ahloqsiz, haqoratomuz yoki Jamiyatning korporativ qadriyatlariga zid bo'lsa;

tender (tanlov) o'tkazishda, nazorat organi (komissiya, ekspert guruhi) qarorini qabul qilishda, narx bo'yicha muzokaralarda, xarid jarayonida yoki boshqa tijorat qarorini qabul qilishda taklif etiladigan sovg'alar yoki vakillik xarajatlari;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki hujjatlarining talablariga zid sovg'alar va vakillik tadbirdi.

18. Tashkilot nomidan xalqaro konferensiylar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish Jamiyat Bosh direktori va uning o'rinnbosarlari buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

19. Jamiyat xodimlari shaxsiy manfaatlari Jamiyat manfaatlariga ta'sir ko'rsatishiga yoki ularga zid bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari zarur. Mustaqil qaror qabul qilishga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan sovg'alar va vakillik xarajatlarini qabul qilish taqiqlanadi.

20. Sovg'aning qonuniyligi yuzasidan shubha uyg'ongan holda, Jamiyat xodimi Jamiyatning Komplayens nazorat bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi kerak.

### **Jamiyat xodimlarining ishbilarmonlik tadbirdarida ishtirok etishi**

21. Jamiyat xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ishbilarmonlik tadbirdarida (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiylar va h.k.) ishtirok etishiga quyidagi shartlarga riyoq qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir Jamiyat yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbirning maqsadida Jamiyat xodimlari tomonidan qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish emas, balki biron-bir qonuniy afzallikkarni olishdan iborat bo'lsa;

bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Jamiyat va ishtirokchi mavqeい uchun xavf-xatar tug'dirmasligi lozim;

tadbir umume'tirof etilgan ishbilarmonlik an'analariga mos kelishi va ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinali bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi zarur.

22. Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Jamiatning o'zi bo'lsa, bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu Siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

### **Xodimlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)**

23. Xodimlarni tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va baholash jarayoni, shuningdek mukofotlash va boshqa rag'batlantirish choralar barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis bo'lishi hamda ushbu Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi kerak.

24. Nomzodlarni tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni Jamiatga qabul qilish uchun tekshirish bo'yicha ichki hujjatlarga, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomi va Jamiatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Jamiatda xodimlarga oid masalalarda qaror qilinuvchi xodimlarning lavozimini oshirganda hamda ularning kasbiy va malakaviy sifatlari bilan bog'liq bo'lman sabablarga ko'ra nomzod/xodimlarga biron-bir asossiz imtiyozlarni berish taqiqlanadi.

26. Bo'sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida va belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

### **Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash**

27. Jamiat ushbu Siyosat tamoyillari va talablar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid har qanday to'lovlar yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalg qilmaydi.

28. Jamiat kontragentlar bilan munosabatlarda qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

29. Jamiatda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va Jamiatning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

30. Jamiat kontragentni tanlash jarayonida:

kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalg qilingan yoki qilinmaganligi, manfaatlar to'qnashuvini mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g‘olibini u bilan shartnomaga matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo‘sish orqali o‘zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

### **Xayriya**

31. Xayriya faoliyatni Jamiyatning ishbilarmonlik obro‘sni (brendi va nufuzi)ni mustahkamlash usullaridan biri hisoblanadi. Biroq, Jamiyatning xayriya faoliyatni noqonuniy ustunlikni olishga urinish yoki olish bilan bog‘liq sifatida qabul qilinmasligi yoki hisoblanmasligi zarur.

Xayriyaga yo‘naltirilgan barcha mablag‘lar Jamiyatning buxgalteriya kitoblari va qaydlarida to‘liq va aniq aks ettirilishi kerak.

32. Jamiyatning xayriya faoliyatni amaldagi qonunchilik talablariga mos bo‘lishi hamda uning asosiy yo‘nalishlari og‘ir kasallikka ega bolalarga yordam berish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini, jismoniy madaniyat va sportni, san’at va ijodni, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini riovjantirishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Xayriya O‘zbekiston Respublikasining “Xayriya to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan maqsadlardan tashqari maqsadlarga yo‘naltirilishi mumkin emas.

Xayriya biznes yuritish uchun ustunlik olish evaziga yoki qaror qabul qilishga ta’sir o‘tkazish uslugi yoxud qabul qilingan qaror uchun mukofot sifatida taqdim etilmasligi kerak.

Xayriya siyosiy partiyalar, tashkilotlar, harakatlar va birlashmalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin emas.

Xayriya va boshqa beg‘araz to‘lovlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi hamda Jamiyatning ichki hujjatlariiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

### **Rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar**

33. Rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlar, xizmatlar va boshqa moddiy va nomoddiy boyliklarni bajarish bilan bog‘liq standart tartib-taomillar bajarilishini ta’minalash yoki tezlashtirish maqsadida, tegishli qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilmagan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlarning noqonuniy ravishda taqdim etilishi.

34. Jamiyat xodimlariga qiymatidan qat’iy nazar rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarini amalga oshirish, shuningdek bunday to‘lovlar amalga oshirilishini niqoblash yoki yashirish taqiqilanadi.

### **Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi**

35. Jamiyatning ichki hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda yuridik bo‘lim korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mayjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazadi.

## **VI. KORRUPSIYAVIY HOLATLAR TO‘G‘RISIDA XABAR BERISH**

36. Jamiyat xodimlarining harakatlari qonuniy yoki ahloqiy ekanligiga shubha yuzaga kelganida, shuningdek Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy yoki boshqa qoidabuzarliklar

amalga oshirilganiga gumon mayjud bo‘lganida, ular haqida ochiq tarzda bevosita Komplayens bo‘limiga, shuningdek Jamiyatda joriy etilgan aloqa kanallari orqali xabar qilish mumkin.

37. Jamiyat, agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi boshqa tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, qoidabuzarlik holatlari haqida asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlaydi,

38. Jamiyat o‘z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi va Jamiyatning boshqa xodimi tomonidan shubhali harakat sodir etilganligi yoki ushbu Siyosatdagi korruksiyaga qarshi talablar buzilganligi ehtimoli yuzasidan vijdonan xabar qilgan xodimlarga nisbatan qasos olish holatlariga, jumladan ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, tahqirlash, ta’qib etishga yo‘l qo‘ymaydi.

39. Jamiyatda joriy etilgan aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar, shuningdek Jamiyatning mas’ul shaxslariga kelib tushgan korruksiyaga doir murojaat/arizalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va xolisona ko‘rib chiqiladi.

40. Anonim tarzda yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi, lekin Jamiyat anonim so‘rovlarga javob berish majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

41. Jamiyat xodimi tomonidan ataylab yolg‘on ma’lumotning taqdim etilishi ushbu Siyosat talablarining buzilishi va ahloqsiz xatti-harakat misoli sifatida ko‘rib chiqiladi hamda bunday shaxs O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

## VII. YAKUNIY QOIDALAR

42. Ushbu Siyosat quyidagi holatlarda qayta ko‘rib chiqilishi va qo‘srimcha kiritilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasining korruksiyaga qarshi qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritilganida, bunda mavjud korruksiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillar qayta ko‘rib chiqilishi zarur;

korruksiyaga qarshi nazaratning samarasiz choralarini va tartib-taomillari aniqlanganida, shuningdek Jamiyat faoliyatida korruksiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganida;

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi va/yoki funksiyalari o‘zgarganida va h.k.